

SOTSIAL HAYOT, IJTIMOIIY MUNOSABATLAR VA SOTSIOLOGIYA

Abdusamatova Odinaxon Abdusalom qizi

Farg‘ona davlat universiteti

Tarix fakulteti Sotsiologiya yo‘nalishi

2-kurs talabasi

E-mail: Odinaabdusamatova6788@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada hozirgi jamiyatimizda keng tarqalgan ijtimoiy munosabatlar, muammolar va ularning hal etilishida sotsiologiyaning o‘rni haqida fikr yuritilgan. Qolaversa, jahon hamjamiyatida sotsiologlarga bo‘lgan talab hamda bu kasbga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: jamiyat, sotsiologiya, nazariya, sotsiologik tadqiqot, ijtimoiy jarayonlar, O.Kont, G.Spenser, M.Veber, E.Dyurkgeym

Sotsiologiya — bu bir butun jamiyat, uning hayoti, muammolari va unda yashaydigan kishilarning o‘zaro munosabatlarini o‘rganadigan, tahlil qiladigan hamda ilmiy uslublar orqali empirik ma’lumotlarga tayanib xulosa qila oladigan fan.

U faqat jamiyat orqali shakllanadi, jamiyat kamol topsa Sotsiologiya ham rivojlanadi.

Umuman olganda, Sotsiologiya qanday paydo bo‘lgan? Uni o‘rganish bizga qanday bilimlar beradi?

Insoniyat tarixida jamiyatning paydo bo‘lishi natijasida rivojlanishning yangi bosqichi boshlandi. Bu esa o‘z navbatida Sotsiologik bilimlar asosi bo‘lgan jamiyat to‘g‘risidagi tasavvurlar, ijtimoiylik va sotsial voqelikka doir tushunchalarni shakllanishiga turtki bo‘ldi. Tarixiy rivojlanish oqibatlari tufayli jamiyatni anglash va unga amaliy ta’sir etish hodisalari yuz berdi. Biroq ko‘pgina insonlar sotsiologiyani

yangi fan deb hisoblashadi. Aslida esa u eng qadimgi predmetlarni o‘rganadigan eng yosh fandir.

Antik dunyo olimlaridan tortib , yaqin sharq mutafakkirlari asarlarida jamiyatga oid qarashlar, mulohazalar bildirib o‘tilgan. Ko‘plab muammolar uchun asoslar va ularning yechimi uchun dalillar keltirilganini qaramay, u fan sifatida XIX asrda rivojlantirish. Bu davrda jamiyat va sotsiallikka doir g‘oyalar turli shakllarda namoyon bo‘la boshladi.

XIX asrning 30-40-yillarida Anri de Sen-Simon va uning izdoshlari Sharl Fure, Robert Ouen kabi sotsial islohotchilar tomonidan jamiyat haqidagi nazariy qarashlar yanada boyitildi.

Tarixda fransuz mutafakkiri Ogyust Kont (1798-1857) Sotsiologiya asoschisi sifatida nom qoldirdi. Kont jamiyat bilan insoniyatni bir- biridan ajratib bo‘lmaydigan sotsial voqelik sifatida ta’riflagan edi.

Keyinchalik bu fanga qiziqish ortib bordi. G.Spenser, M.Veber, E.Dyurkgeym, G.Zimmel, J.Gurvich, P.Sorokin, T.Parsons kabi mashhur sotsiologlar yetishib chiqdilar va sotsiologiyaga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Ularning asarlaridagi bir qator ziddiyatlar va xulosalar bu fanni chuqur o‘rganishni taqozo etadi. Misol uchun, ushbu fan arboblarning sotsiologiya fani predmeti haqidagi fikrlariga e’tibor qaratsak: O.Kont uchun sotsiologiya predmeti insoniyat bilan aynanlashtirilgan jamiyat bo‘lsa, M.Veber uchun “sotsial harakat ” deb tushuniladigan odamlarning sotsial xulqidir. Yana E.Dyurkgeym qarashlarida sotsiologiya, asosan, sotsial dalillar va ularni tushuntirishdir.

Jamiyat asosini sotsial aloqalar tashkil etadi. Uning ostida shaxslararo munosabatlar joylashgan. Shu sababli ham sotsiologiyada sotsial munosabatlar muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy munosabatlar moddiy ishlab chiqarish munosabatlari, siyosiy, huquqiy, ma’naviy, madaniy, ahloqiy va boshqa munosabatlarga nisbatan belgilovchi harakterga ega bo‘lib, jamiyat hayotining umumsotsiologik qonuniyatlarni ifodalaydi. Butun jamiyat shunday munosabatlar vositasida qurilgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Demak, sotsiologiya katta bir jamiyatni, guruhlarni qamrab oar ekan, sotsiologlarning vazifalari ham kattagina bo‘lishi tabiiy. Bu kasb egalari uchun intellektual fikrlash muhimdir, ko‘proq ma’lumotlar olish va qayta ishlash bilan shug‘ullanishadi. O‘z faoliyatlari davomida turli xil sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishadi. Anketa, so‘roq qilish, hujjatlarni tahlil etish , intervyu kabi usullardan foydalanishadi. Mening nazarimda ham jamoatchilik fikrini o‘rganish, ularni muammolariga yechim topish maroqli ish. Bu kasbga bo‘lgan talabning ham ortib borishi bejiz emas. Statistik ma’lumotlarga tayanadigan bo‘lsak, 2028-yilga kelib sotsiologlarga bo‘lgan talab juda yuqori bo‘lishi kutilmoqda. Bunday holatda malakali va tajribali fan mutaxassislari uchun katta imkoniyatlar kashf etiladi.

Xulosa qilib aytganda, sotsiologiya ijtimoiy borliq haqidagi muammolarni va yechimlarini o‘rganadigan kelajak fanidir. Insoniyat bor ekan uning muammolari kun sayin ortib boraveradi. Ularning sabablarini aniqlash, daliliy yechim topish jamiyatda shaxs tushunchasi maqomini oshirish, sotsial aloqalar barqarorligini ta’minlash doim asosiy o‘rinda turadi. Sotsiologlar esa yuqoridagi vazifalar uchun mas’uldir . Qolaversa, barcha insonlarga sotsiologiya haqidagi bilimlar kerak bo‘ladi. Chunki sotsiologik tafakkur orqali ijtimoiy hayotni ilmiy baholash va ob’ektiv informatsiya olish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Sotsiologiya fanidan ma’ruzalar matni. Atajonova. A, Qutlimuratov.S.
2. Sotsiologiya. M.Qirg‘izboyev. Toshkent “Navro‘z” nashriyoti: 2017
3. Sotsiologiya fanidan ma’ruzalar matni. Xodjiev Umrbek Shonazarovich ; Urganch:2015
4. Qomus.info